

“TASDIQLAYMAN”

**Yangi Namangan tumani Kambag'allikni
qisqartirish va bandlikka ko'maklashish
bo'limi boshlig'i:**



M.Raximov

“17” noyabr 2025 yil

**Yangi Namangan tumani Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish
bo'limi boshlig'innig Majlislar zalida o'tkazilgan yig'ilish**

BAYONI

“17” noyabr 2025 yil

Yangi Namangan tumani

Yig'ilish raisi:

M.Raximov – tuman Kambag'allikni
qisqartirish va bandlikka ko'maklashish
bo'limi boshlig'i

Yig'ilishda qatnashdilar:

Bo'lim boshlig'i o'rinbosarlari, bo'lim
shu'basi xamda mutaxassislari, davlat mehnat
huquq inspektori, MFY hokim yordamchilari
(ro'yhat bo'yicha)

Yig'ilishida Yangi Namangan tumani Adliya bo'limi katta maslaxatchisi M.Tursunov
ishtirok etdi.

KUN TARTIBIDAGI MASALA:

**1.Yangi Namangan tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka
ko'maklashish bo'limida “Korrupsiyaga qarshi kurashish, bugungi kun davr talabi”
mavzusi;**

**2.Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi tizimida joriy
yilning 10-noyabrdan 10-dekabrga qadar "Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi"ni
o'tkazish to'g'risida**

(M.Raximov,Sh.Abdullaev,I.Tursunov,B.Tursunov,M.Xakimov,I.Ibroximov,D.Buzrukova.....)

Yig'ilishni Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi boshlig'i
M.Raximov ochib, u o'z so'zida bo'limda faoliyat yuritayotgan rahbar-xodimlarning
xamda MFY hokim yordamchilarini huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, korrupsiyaga

nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, korrupsiyaviy holatlarni minimallashtirish maqsadida joriy yilning 10-noyabrdan 10-dekabrga qadar "Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi"ni o'tkazish to'g'risida gapirib o'tdi.

Yig'ilish raisi o'z so'zini kun tartibidagi masala yuzasidan so'zni Yangi Namangan tumani Adliya bo'limi katta maslaxatchisi M.Tursunovga berdi, notiq o'z so'zida O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi raisi tomonidan tasdiqlangan "9 dekabr-Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni"ga bag'ishlangan Aksilkorrupsiya haftaligi doirasida o'tkaziladigan tadbirlar rejasining 14-bandi ijrosini ta'minlash yuzasidan tizimlarda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, korupsion xatarlarni oldini olish va bartaraf etish, bandlik va mehnat munosabatlari sohasida antikorrupsion tizimlarni joriy etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan yig'ilish ishtirokchilarini tanishtirib o'tdi. Bunday qonunbuzilish xolatlarini oldini olish maqsadida keng aholi o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish, xodimlarni ishga qabul qilishda korrupsiya xolatlariga yo'l qo'ymaslik, qarindosh urug'chilik, tanish bilishchilik xolatlariga yo'l qo'ymaslik xolatlarini oldini olish bo'yicha o'zini fikrlarini bildirdi, bundan tashqari notiq o'z so'zini davom etib, korrupsiya shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishi ekanligini, korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilganligi, shaxsiy bevosita yoki bilvosita manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat manfaatlar to'qnashuvini tashkil etishini, korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat ekanligi, ya'ni qonuniylik, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi, ochiqlik va shaffoflik, tizimlilik, davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi, korrupsiyaning oldini Olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi, javobgarlikning muqarrarligi ekanligi, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat ekanligi ya'ni aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlash ekanligini ta'kidlab o'tdi.

Shundan so'zni bo'limi boshlig'i M.Raximovga berdi, notiq o'z so'zida O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun ishlab chiqilganligini, ushbu Qonunga asosan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, O'zbekiston

Respublikasi Bosh prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni

qonunchilikka muvofiq boshqa davlat organlari ham amalga oshirishi, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda taslikilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish uchun O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashi tashkil etishi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan muhosasiz munosabatni shakllantirishda ishtirok etishi, korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikning ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi, korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritishi, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi mumkinligi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar qonunchilikka muvofiq boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi mumkinligi, nodavlat notijorat tashkilotlari ushbu moddada nazarda tutilgan takliflarni amalga oshirish maqsadida Milliy kengash va hududiy kengashlar faoliyatida, shuningdek davlat organlari huzuridagi ishchi guruhlar, komissiyalar va jamoat-maslahat organlari faoliyatida qonunchilikda belgilangan tartibda ishtirok etishi belgilanganligini ta'kidlab o'tdi.

Yuqorida aytib o'tilgan so'zlar yuzasidan Ish beruvchilar bilan ishlash va bo'sh ish o'rinlari hisobini yuritish bo'yicha bosh mutaxassisi B.Tursunov, Davlat mehnat xuquq inspektori Sh.Abdullaev va bo'lim mutaxassislarining fikr muloxazalari tinglandi.

Kun tartibi bo'yicha masalani ko'rib chiqib, bildirilgan taklif va mulohazalarni hamda fikrlarni inobatga olib yig'ilish

Q A R O R Q I L A D I:

1. Yangi Namangan tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi tizimida joriy yilning 10-noyabrdan 10-dekabrga qadar "Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi"ni o'tkazish hamda "9 dekabr-Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni" ga bag'ishlangan Aksilkorrupsiya haftaligi doirasida o'tkaziladigan tadbirlar rejasining 14-bandi ijrosini ta'minlash to'g'risidagi bo'lim boshlig'i M.Raximovning maruzasi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Yangi Namangan tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi davlat mehnat inspektori Sh.Abdullaev, hamda Tashkiliy nazorat va kadrlar bo'yicha bosh mutaxassis D.Buzrukovalar yig'ilishda bildirilgan taklif va mulohazalarni inobatga Olgan xolda bo'limda ochiqlik va shafoflikni ta'minlash, korrupsion xatarlarni oldini olish va bartaraf etish, korrupsiyaga muhosasiz munosabatni shakllantirish bo'yicha har oyda kamida bir marotaba targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borilsin.

3. Yangi Namangan tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi mutaxassislari hamda MFY hokim yordamchilari MFY raislari bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunni mazmun va moxiyatini keng aholiga tushuntirish ishlarini olib

borish vazifasi topshirilsin.

4. Mazkur yig'ilish qarorini ijrosini nazorat qilishni bo'lim boshlig'ining birinchi o'rinbosari M. Rahimov zimmasiga yuklatilsin.



Bayonnoma tuzuvchi

D. Buzrukova

